



“DEVONU LUG’OTIT TURK” ASARIDAGI MIFOLOGIK QARASHLAR TAHLILI

Mastonova Manzura Musurmon qizi

mastonovamanzura770@gmail.com

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti filologiya
fakulteti magistratura bosqichi talabasi
<https://doi.org/10.5281/zenodo.17984658>

ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 10-dekabr 2025 yil
Ma’qullandi: 14-dekabr 2025 yil
Nashr qilindi: 19-dekabr 2025 yil

KEY WORDS

Mifologema, “yada toshi”, ko’k tubulg’on, “it qush”, so’z magiyasi, afsona, rivoyat.

ABSTRACT

Mazkur maqolada “Devonu lug’otit turk” asarida uchraydigan xalq og’zaki ijodiga oid terminlar hamda mifologik birliklarning miqdoriy tahlili berilib, ularning hozirgi davrda faol qo’llanilayotgani yoki iste’moldan chiqib ketgani masalasi yoritilgan. Shuningdek, “Yada toshi” vositasida yomg’ir chaqirish marosimiga doir muallifning shaxsiy mulohaza va xulosalari bayon etilgan. Asarda so’z magiyasiga oid qadimiy tasavvurlar, joy nomlari va qabila nomlarining shakllanishi bilan bog’liq afsona hamda rivoyatlar o’ziga xos badiiy uslubda ifodalangani ham alohida ta’kidlangan.

Mahmud Koshg’ariy qalamiga mansub “Devonu lug’otit turk” asari ilmiy ahamiyati jihatidan XI asrga oid eng nodir va ishonchli manbalardan biri sanaladi. Ushbu yodgorlik faqat tilshunoslik doirasidagina emas, balki etnografiya, geografiya, tarix hamda folklorshunoslik fanlari uchun ham bebaho manba vazifasini bajaradi. Asarda qadimgi turkiy qabilalarning turmush tarzi, ijtimoiy va maishiy hayoti bilan bog’liq so’z va tushunchalarning mazmunini chuqurroq ochib berish maqsadida muallif xalq og’zaki ijodi namunalariga keng murojaat qilgan. Xususan, leksik birliklarning ma’nosini izohlash jarayonida maqollar va to’rtliklardan foydalanilgan. Bu folkloriy materiallar esa o’sha davr kishilarining dunyoqarashi, fikrlash tarzi hamda mifologik tasavvurlarini anglashda muhim manba sifatida namoyon bo’ladi. Shuningdek, asarda uchraydigan ayrim so’zlar bugungi kunda ham faol qo’llanilayotgan bo’lsa, ayrimlari tashqi shaklini saqlab qolgan holda, dastlabki ma’nosini qisman yoki to’liq yo’qotganini kuzatish mumkin.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Mahmud Koshg’ariy turkiy qabilalar folkloriga mansub qo’shiqlar, maqol va matallar, marosim folklori, afsona hamda rivoyatlar kabi janrlar bo’yicha boy va keng qamrovli materiallarni jamlagan. Shu bois “Devonu lug’otit turk” asarida uchraydigan folklor unsurlarini o’zbek xalq og’zaki ijodining badiiy namunalariga qiyoslab o’rganish folklorning tarixiy rivojlanish bosqichlarini aniqlashda alohida ilmiy ahamiyatga ega. Aynan shu masala yuzasidan “Devonu lug’otit turk” leksikasining o’zbek folkloridagi aks etish holatlarini chuqur tadqiq etgan olim Hodi Zarifov 1961-yil 21-fevral kuni o’z ilmiy mulohazalarini bayon etgan edi.

“Devon”dagi leksik va grammatik faktlarni o‘zbek tiliga oid barcha yozma asarlar tili bilan qiyosiy tekshirish qanchalik ahamiyatga ega bo‘lsa, u faktlarning o‘zbek folklorida va shevalarida mavjudligini aniqlash ham shunchalik muhimdir. [2.47]

“Devon” asarida mifologik tasavvurlar bilan bog‘liq turli obraz va ramzlarni keng uchratish mumkin. Mifologik qatlamni o‘rganish jarayonida kosmogonik va kalendar miflar bilan bir qatorda so‘z magiyasi bilan bog‘liq mifologik hikoyalar ham aniqlanadi. Asarda ajdodlarimizning osmon yoritqichlari bilan bog‘liq kosmogonik va mifologik qarashlari haqidagi qiziqarli ma’lumotlar ham mavjud. Olim “Devon”ning 1-jildida “oy” so‘ziga izoh berar ekan, “o‘n to‘rt kunlik oyga “tolun aj (to‘lin oy) deyiladi” deb yozadi va “a:j tolun bolsa eligin imlamas”, ya’ni “Oy to‘lin bo‘lsa, qo‘l bilan imlanmas” maqolini keltiradi [1.B.110-111]

To‘lin oyning ko‘rinishiga qarab qo‘l bilan imlamaslik haqidagi taqiqlarning XI asrda yashagan qavmlar orasida keng tarqalganligi bejiz emas. Chunki qadim zamonlarda ajdodlarimiz oy, quyosh va yulduzlarni muqaddas deb hisoblab, ularga alohida e’tibor berishgan. Kecha-kunduz almashinuvi va osmonni charog‘on qilgan yulduzlarning jilolanishi qadimgi insonning diqqatini o‘ziga tortgan. “Hudud al-olam” nomli asarda yozilishicha, qadimgi turkiy qavmlar, xususan, chigillar quyosh va yulduzlarga sig‘inishsa, tatarlar bu olamda oftobdan muqaddasroq narsa yo‘q deb bilishgan. Bu asarda qirg‘izlarning bobokalonlari Zuhra va Mushtariy yulduzlarini mo‘tabar sanashganligi haqida ham ma’lumotlar bor. [3. 43]

Shuningdek, “Devon” asarida qush tuxumidan tug‘ilgan it – “baroq” haqidagi mif, shuningdek, Yetagan va Oltin qoziq (“temir qoziq”) yulduzlari bilan bog‘liq samoviy qarashlar ham keltirilgan. “Qazunuq” – qoziq Qutb yulduzini “Temur qazunuq” deyish ham shundan. “Temir qoziq” demakdir. Chunki, osmon buning ustida aylanadi” [4.393] - deb yozadi Mahmud Koshg‘ariy.

Olim “ko‘k tubulg‘on” so‘ziga izoh berib, quyidagilarni yozadi: “Kok tubulg‘on – bir qushning nomi. Aytishlaricha, bu qushning ikki qanotida po‘lat bo‘ladi va qanoti bilan toqqa urib, bir tomondan boshqa tomonga o‘tadi. Bu so‘zni menga o‘zim foydalanib yurgan bir kishi aytdi” [4.474]. Ko‘rinib turibdiki, ushbu mifologik afsonada qadimiy turkiy xalq folklorida uchragan xayoliy qush tasavvurlari o‘z aksini topgan. Shuningdek, o‘zbek tilida qattiq patlari o‘tib chiqqan qush poloponini “temirqanot bo‘libdi” deb ta’riflash orqali ham bu qadimiy tasavvurlar izlarini saqlab qolganini ko‘rish mumkin.

O‘tmishda tabiat hodisalarining haqiqiy sabablarini tushunmagan qadimgi odamlar qurg‘ochilik yoki suv yetishmovchiligi bilan yuzlashganda, turli sehrli amallar va ritual marosimlar orqali yomg‘ir so‘rab, suv va yomg‘ir ma’budlariga murojaat qilganlar. Shu turdagi qadimiy marosimlar orasida turkiy qavmlar mifologiyasida “yomg‘ir toshi” sifatida e’tirof etilgan “yada toshi” bilan amalga oshiriladigan rituallar alohida ahamiyatga ega bo‘lgan. Bu “sehrli” tosh yordamida shamol, chaqmoq va bo‘ronni chaqirish, yomg‘ir yoki qor yog‘dirish, shuningdek, kutilmagan yog‘ingarchilikni to‘xtatish marosimlari qadimgi turkiylarning tabiat hodisalarini tilsimiy ravishda tushunishiga asoslangan.

Qadimgi turkiylar orasida keng tarqalgan afsonalarda “yada” deb ataladigan rang-barang toshning yomg‘ir chaqirish xususiyatiga ega ekanligi tasavvur qilingan. Naql qilinishicha, yomg‘ir homiylari sharafiga qurbon qilingan jonivor qoni surtilgan yada toshini quyoshga qarab tutib afsun o‘qilgan yoki suvga solinganida, shamol paydo bo‘lib bulutlarni olib kelar va tezda yomg‘ir yog‘a boshlardi.

“Devonu lug’otit-turk”da “yada toshi” bilan bog’liq mifologik tasavvurlar ham keltirilgan. “Devon”ning 3-jildi, 8-sahifasida quyidagilarni o’qiydiz: “Yada

yomg’ir, shamol va boshqalarni talab qilish uchun maxsus toshlar (yada toshi) bilan fol ochish usulidir. Bu odat ular orasida keng tarqalgandir. Men buni yag’molar shahrida o’z ko’zim bilan ko’rdim. U yerda paydo bo’lgan bir yomg’inni so’ndirish uchun shunday fol qilingan edi, Xudoning amri bilan yozda qor yog’di. Ko’z oldimda yomg’inni so’ndirdi”. [4.324]

Turkiy qavmlar yashagan hududlarni kezib, nafaqat so’z va iboralarni to’plab, balki xalq og’zaki ijodi, urf-odat va marosimlarga oid boy materiallarni yig’gan Mahmud Koshg’ariy, “yada toshi” bilan bog’liq tasavvurlarni ham atroficha o’rganib, “yomg’ir toshi” yordamida o’tkazilgan marosimni quyidagicha tasvirlaydi: “bek yadachiga duo o’qitdi. Shuning uchun shamol esdi. Yomg’ir yog’di. Bu hodisa turklar mamalakatida mashhurdir. Tosh orqali shamol, yomg’ir, sovuq qo’zg’otiladi”. Boshqa bir o’rinda olim “yatlatdi” fe’liga “afsunchi yomg’ir yog’dirish uchun yada toshi bilan duo o’qidi” deb izoh bergan. [4.324]

O’sha davrlarda ham lalmikor yerga ekin ekib, dehqonchilik bilan shug’ullangan sohibkorlar suv yetishmovchiligi bo’lgan yillarda yada toshi yordamida tabiatdan yomg’ir so’rab tilovat qilganlar. Shu sababli, Zahiriddin Muhammad Bobur “Boburnoma”da Xoja Mulla Sadrni ta’riflar ekan: “Tolibi ilmligi bor edi, lug’atni xili bilur edi, inshosi ham yaxshi edi. Qushchulug’ni va yadachilikni ham bilur erdi”, - deydi. [5.98]

NATIJALAR

Qadimgi ajdodlarimizning tasavvurlariga ko’ra, yomg’ir, qor va do’l kabi tabiiy hodisalarning har biri o’z “egasi”ga ega deb hisoblangan. Hayoti bevosita ob-havo, fasllar almashinuvi va tabiat hodisalari bilan chambarchas bog’liq bo’lgan qadimgi insonlar mo’l yog’ingarchilikni bu “egalar”ning ehsoni sifatida, qurg’oqchilikni esa ularning g’azabi yoki yovuz ruhlarning hujumi natijasi deb bilishgan. Shu bois, yog’in-sochinga ehtiyoj tug’ilganda yoki ortiqcha yomg’irni to’xtatish zarur bo’lganda, tabiat hodisalarining homiylaridan yordam so’rash maqsadida turli marosimlar o’tkazilgan. Turkiy xalqlarda “yada toshi” yordamida yomg’ir yog’dirish yoki uni to’xtatishga oid marosimlarning mavjudligi ham ana shu qadimiy e’tiqodlarning mahsulidir. Mahmud Koshg’ariy o’zining “Devonu lug’otit-turk” asari uchun material to’plar ekan, yag’mo qabilasi vakillaridan “yada toshi” haqidagi afsonani yozib olgan. Shu orqali bizgacha qadimiy turkiy mifologiyaga oid bebaho ma’lumot yetib kelgan.

MUHOKAMA

Mahmud Koshg’ariy “Devonu lug’otit-turk” asarida nafaqat turkiy xalqlar tili va leksikasini o’rganish, balki ularning qadimiy dunyoqarashi, e’tiqodlari va marosimlariga oid qimmatli ma’lumotlarni ham jamlagan. Asarda keltirilgan mifologik hikoyalar, afsonalar, ramzlar va obrazlar turkiy xalqlarning tabiat hodisalari bilan bog’liq tasavvurlarini oydinlashtirishda beqiyos manba hisoblanadi.

Olimning “yada toshi” haqidagi yozuvlari shundan dalolat beradiki, qadimgi turkiy qavmlar tabiat hodisalarini, xususan, yomg’ir, shamol, qor kabi tabiiy jarayonlarni sirli kuchlar ta’siri bilan bog’lashgan. Bu hodisalarni boshqarish uchun afsunchilik, duolar va marosimlar tizimidan foydalanganliklari, aslida, diniy-mifologik ongning o’ziga xos bosqichini ifodalaydi. Yada toshi haqidagi rivoyatlar turkiy xalqning totemistik, animistik va magik qarashlarining uyg’unlashgan namunasi sifatida folklor va dini e’tiqodlar sintezini aks ettiradi. Bundan tashqari, “Devon”dagi osmon jismlari – Oy, Quyosh, Yulduz, Temir qoziq, Zuhra kabi nomlar atrofida shakllangan mifologik qarashlar ham turkiylarning kosmogonik dunyoqarashini

yoritadi. Bu obrazlar o'zbek xalq og'zaki ijodida ham saqlanib qolgan bo'lib, "Oy to'lin bo'lsa, qo'l bilan imlanmas" kabi maqollar yoki "temirqanot" iboralari orqali qadimiy e'tiqodlarning izlari hozirgi til qatlamida ham aks etib turadi.

Shu jihatdan olganda, "Devonu lug'otit-turk" asarida qayd etilgan mifologik qatlamlar turkiy xalqlar ruhiy olamini, tabiat bilan uyg'un yashash tamoyillarini, diniy va e'tiqodiy qarashlarini o'rganishda bevosita manba sifatida katta ahamiyat kasb etadi. Mazkur ma'lumotlar o'zbek xalq folklorining genezisi, obrazlar tizimi va marosim poetikasini tarixiy manbalar orqali chuqurroq tahlil etish imkonini beradi.

XULOSA

Mahmud Koshg'ariyning "Devonu lug'otit-turk" asari turkiy xalqlarning nafaqat tili, balki ularning boy madaniy-ma'naviy dunyosini, xususan, mifologik qarashlarini o'zida mujassam etgan bebaho manbadir. Asarda qayd etilgan "yada toshi", "tolun aj" (to'lin oy), "temir qoziq", "ko'k tubulg'on" kabi mifologik tushunchalar turkiylarning tabiat hodisalariga munosabatini, ularning diniy-marosimiy hayotini yoritadi. Olimning kuzatuvlari asosida qadimiy turkiy qavmlar orasida mavjud bo'lgan tabiatni muqaddaslashtirish, yomg'ir va shamolni sehrli kuchlar orqali boshqarish haqidagi e'tiqodlar keyinchalik o'zbek xalq folklorida, urf-odatlarida va tilida iz qoldirgan. Demak, "Devonu lug'otit-turk"da qayd etilgan mifologik marosimlar xalqning ma'naviy merosi, diniy ong evolyutsiyasi va madaniy tafakkurini tadqiq etishda muhim ilmiy manba bo'lib xizmat qiladi.

Natijada, Koshg'ariy asari orqali qadimiy turkiylarning dunyoqarashi, tabiat bilan o'zaro aloqasi hamda marosim folklorining ildizlari oydinlashadi. Bu esa o'zbek folklorining shakllanish tarixini aniqlash, xalq og'zaki ijodidagi mifologik qatlamlarni tahlil etishda muhim ilmiy asos yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Mahmud Koshg'ariy. Devonu lug'otit-turk. 1-tom. – Toshkent: Fan, 1960.
2. Zarifov H. "Devonu lug'otit-turk" leksikasining o'zbek folklorida ko'rinishiga doir (tezislar) // Po'ltan shoir, - Toshkent: Fan, 1976.
3. Hudud al-alam. Рукопись Туманского об издании введением и указателями В.В.Бартольда. –Л., 1930.
4. Devonu lug'otit-turk (Turkiy so'zlar devoni) / M.Qoshg'ariy. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijdiy uyi, 2017.
5. Zahiriddin Muhammad Bobur. Boburnoma. – Toshkent: Fan, 1969.